HAMKORLIKDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI (ONA TILI DARSI MISOLIDA)

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU prifessori, filologiya

423

fanlari doktori (DSc)
Biyimbetova Dilnaz Jalixan qizi
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada differensial yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimining muhim qismi ekanligi, differensial yondashuvlar o‘qitish jarayonida o‘qituvchidan talabalar ehtiyojlarini aniqlash va kollaboratsiya birgalikdagi faoliyat jarayoni bilim almashish, o‘qitish va kelishuvga erishish mavjudligi bilan ta’riflanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, differensial yondashuv, kollaborativ o‘qitish, tamoyil, hamkorlikda o‘qitish, texnologik yondashuv, birgalikda ishlash, tabaqalashtirilgan ta’lim.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlari, bilim darajasi va qobiliyatlarini inobatga olish zarurati tobora oshib bormoqda. Har bir talabab yoki o‘quvchi o‘rganish jarayonida turli tezlik va usullarda muvaffaqiyatga erishadi, shuning uchun “barchaga bir xil” yondashuv ko‘pincha yetarli natija bermaydi. Shaxsiy yondashuvlar va o‘quv jarayonini moslashtirish o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochishiga yordam beradi va ta’lim sifatini oshiradi. Shu ma’noda, differensial yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lib, har bir talabaga individual rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi.

Differensial yondashuvlar o‘qitish jarayonida o‘qituvchidan talabalar ehtiyojlarini aniqlash, ularni turli usullar yordamida qo‘llab-quvvatlash hamda ularga mos material va topshiriqlarni tanlashni talab qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi – ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish – talabalarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi va ular orasida mas’uliyat hissini kuchaytiradi [3; 9].

L.S.Vigotskiy o‘zining “Ijtimoiy-madaniy nazariyasi”da bugungi kollaborativ o‘qitishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan [9]. Olimning fikricha, inson tafakkuri hamda bilimi ijtimoiy muloqot va hamkorlik orqali rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qitish talabalarda birga ishlash, fikrlarni muhokama qilish va o‘zaro kelishib olish orqali ijtimoiy tajribalarini oshirish, fikrlarini mustaqil ravishda ifodalash hamda o‘zlashtirgan bilimini amalda qo‘llash, o‘zaro muloqot va muhokamalar orqali ma’lumotlarning ma’nosi hamda qo‘llanishini chuqurroq tushunish, bir-biriga yordam berish va birga ishlash orqali o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashish, didaktik muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlari rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

“Kollaboratsiya” (kollaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko‘proq kishining sherikchiligi – deb tushunilsa [6], “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: umumiy maqsadga erishish uchun ishtirokchilarning g‘oya va imkoniyatlarining birlashishi, hamkorlik deb ta’rif beradi [8]. Ba’zi manbalarda esa “Kollaboratsiya” – (hamkorlik) – ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhning har qanday sohadagi umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayoni hisoblanib, unda bilim almashish, o‘qitish va kelishuvga erishish (konsensus) [1] mavjudligi bilan ta’riflandi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv masalasiga alohida e’tibor qaratilishi, texnologik yondashuvning eng asosiy afzalliklari kutiladigan natija-larning oldindan belgilanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda, o‘quv maqsa-dining belgilab olinishi, o‘z navbatida ta’lim maqsadini o‘quv vazifalarga aylanti-rilishi, ta’lim shakli, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlab olinishi, o‘qituvchi hamda ta’lim oluvchi faoliyati bosqichlarining alohida-alohida loyihalab olinishini tashkil etadi [4; 216].

Kollaborativ o‘qitishning ona tili va uni o‘qitish metodikasi fanlarida butun guruh bo‘lib, kichik guruhlarga bo‘linib, birgalikda mashqlarni bajarish, muhokama va debatlarda

bir mavzu bo‘yicha fikrlarini muhokama qilish, loyihalar ustida ishlash, o‘zaro o‘rganish, fikr almashish kabi turlaridan foydalanish ijobiy samaraga ega.

Hamkorlikda o‘qitishning afzalliklari talabalarni faollashtirish, ular orasida o‘zaro hurmat va mas’uliyatni o‘stirish, muloqot, ijtimoiy tajribalarini oshirish, o‘zlashtirgan bilimini amalda qo‘llash imkoniyatini oshirish imkoniyatlarida ko‘rinadi. O‘z navbatida, hamkorlikda o‘qitishning faoliyatda ba’zi talabalar ishtirok etmasligi mumkinligi, guruhdagi notenglik (ba’zilar ko‘p, ba’zilar oz ishlashi oqibatida), vaqtni noto‘g‘ri sarflash mumkinligi kabi pedagogik va psixologik nuqsonlari uchrashini ham e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Shunga qaramasdan, hamkorlikda o‘qitish tabaqalashtirilgan ta’limning muhim mexanizmi sifatida zamonaviy ta’limning muhim qismi bo‘lib, talabalarning ijtimoiy, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu usulning muvaffaqiyati o‘qituvchining metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlari va talabalarning faol ishtirokini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq.

Talabalarning birgalikda ishlash malakalarini oshirish uchun guruh va jamoaviy loyihalar qo‘llanilishini rag‘batlantirish lozim. Bu ular orasida hamkorlik va o‘zaro yordam ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Differensial yondashuvlar orqali har bir talabaga moslashtirilgan ta’lim jarayoni tashkil etish nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu yondashuvlarni ta’lim tizimida keng qo‘llash va takomillashtirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Xulosa shuki, tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish mexanizmlari ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘quv jarayoniga qiziqishlarini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarning ona tilidagi bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish, birga ishlash, fikrlarni muhokama qilish va o‘zaro kelishib olish orqali ijtimoiy tajribalarini oshirish, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalash va o‘zlashtirgan bilimini amalda qo‘llash tajribalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olshanskogo D.V. Sotrudnichestvo Glossariy po politicheskoy psixologii. –M.: RUDN. 2003.

2. Qodirov F. The place of econometrical modeling of healthcare quality improvement in the digital economy. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.

3. Qodirov F.E., Fayzullayeva D. H. Ta’limda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish usullari. Zamonaviy dunyoda innovatsiyon yondashuvlar:” Nazariy ava amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy va onlayn konferesiya. 2024. – B. 9.

4. Rakhmatov O. U. Collaboration as an important means of developing practical competence in future physical education teachers. Education and innovative research. 2023 y. №3. – B. 216.

5. Sousa, D. A., & Tomlinson, C. A. (2011). Differentiation and the Brain: How Neuroscience Supports the Learner-Friendly Classroom. Bloomington, IN: Solution Tree Press.